



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## O'ZBEKISTONDA INGLIZ TILINI O'QITISH VA O'RGANISHNING ZAMONAVIY MODELII

**Ismatillayeva Farinoz Jamshid qizi**

*O'zDJTU, Ingliz filologiya fakulteti  
1-bosqich talabasi*

**Raximova Go`zal Bagriddinovna**

*Ilmiy maslahatchi, O'zDJTU,  
Ingliz tili funksional leksikasi kafedrası*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176354>

**Annotatsiya.** Har bir tilni o'rganish uchun o'sha tilning grammatikasini o'rganish kerak. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish va o'rganish borasidagi ma'lumotlar, talabalarga ingliz tili o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rni haqida bayon etilgan. Shuningdek, til o'rganishda nimalar muhimligi haqida yozilgan, zero tilni o'rganish osonlashar. Bu maqolada O'zbekistonda chet tili ahiyamati va o'rganishning zamonaviy usullari hamda ularning hayotdagi o'rni haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy metodlar, Ingliz tilini o'rganish, talabalar.

**Kirish.** Mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir paytda talaba va o'qituvchilarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu esa bizga yangi vazifa hamda mas'uliyatni yuklaydi. Innovatsion texnologiyaning kirib kelishi natijasida ingliz tilini o'rganish sezilarli darajada o'zgardi. Yurtimizdagi shu kabi islohotlar sababli tilni talaba tezda o'rganishi nafaqat talaba o'qituvchi ham yangi metodlar va darsni qay tarzda qiziqarli, foydali o'tishni o'rgana olishiga kafolat beriladi. Xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha hozirgi kunda ko'nikma va malakalarni oshirish davlat siyosatining ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalaridan biriga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshlang'ich va katta sinf o'quvchilari uchun ham chet tili kitoblari o'zgartirildi ya'ni murakkablashtirildi, chunki kundan kunga bolalarning zehni ortib boryapti. Shuning uchun ularni yoshlikdan til o'rganishga qiziqtirish kelajakda jamiyatning bir bo'lagi sifatida bo'lishiga ko'maklashadi. Oliy ta'lim muassasalarining pedagoglari ham chet tilini yaxshi bilishi hamda o'z ustida ishlashi, zamonaviy metodikasini yaratishi ta'kidlandi. Chet tilini o'qitishda yangicha yondashuvlarga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, bunda e'tiborni ilmiy ishning samaradorligiga qaratish muhim. Ilmiy metodikalarni bevosita ta'lim jarayonida foydalanish, tizimni ishlab chiqish va joriy etish samarali hisoblanadi.



## XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**Asosiy qism.** Yurtimizda o'qitishda darajalar mavjud, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich sinflar, yuqori hamda turli iqtisoslashtirilgan litseylar va kollejlarda mavjud. Bularning o'z o'qitish metodikasi va darajasiga qarab kitoblar ham beriladi. Masalan, bog'chalarda chet tilini qiziqtirish uchun oddiy so'z yodlash va qiziqarli o'yinlar o'tiladi, boshlang'ichda sal o'zgartirishlar kiritilgan oldingi kitoblardan ancha o'zgargan. Universitetlarda esa B2 va C1 darajasidagi darslar o'rganiladi va maxsus bilim malakaga ega o'qituvchilar dars bermoqda.

O'qituvchilar darslarni mazmunli o'tkazish maqsadida o'yinlar tashkil qilishadi. O'yinlar dars jarayonini qiziqarli qiladi va talabalarning faolligini oshiradi. Shundan keyin ular majburiyat emas o'z xohishlari bilan qatnashadilar, shuning uchun bular ishtiyoqni tilga bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantiradi, nafaqat ko'nikma balki kayfiyatni ham ko'taradi. Ba'zi talabalar o'zi xohlasa ham birovlarining oldida gapirishga ,xato qilib qo'yishga qo'rqishadi. O'yinlarda esa tabiiy va erkin so'zlasha olishadi yana jamoa bilan ishlashni ham o'rganadi. Kahoot, wordwall yoki quizlet kabi o'yinlar lug'at boyligini oshirishga ko'maklashadi, qiziqarli savol javoblar, interaktiv videolar, debatlar ham talabalarni mavzuni mukammal mustahkamlashiga vafadol ishtirik etishlariga yordam beradi. O'qitishdagi asosiy vazifalardan biri ularga motivatsiya berish va ruhlantirish hisoblanadi, ularning kelajakdagi rejalariga bog'liq holda til o'rganishni ahamiyatini oshirish muhimdir. Tog'ri metodika va yondashuvlar bular: kommunikativ yondashuv muloqot orqali tilni o'rganish, task-based learning vazifalar orqali o'rganish, direct metod, grammatik qoidalar bilangina emas muloqot orqali o'rgatish hisoblanadi.

Til ko'nikmalarni rivojlantirishda bizda to'rt ko'nikma mavjud. Bular Listening, reading, writing, speaking. Listening-tinglab tushunish o'quvchilar audiolar, suhbatlarni eshitib tushunish orqali tilni o'rganishadi. Reading-lug'at boyligini tushunish uchun yordam beradi, buning uchun matnga asoslangan mashqlar bajariladi. Writing-bunga esa grammatika muhim chunki har bir so'zning tog'ri yozilishi, mantiqiy jihatdan yozish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Speaking-o'quvchilarning erkin muloqot qilishi hamda gapirishni kuchaytirish mumkin. Shu muloqotga mos shaklda mashqlar bajarilishi kerak. Hozirgi kunda bu amallarni rivojlantirish uchun sun'iy intellektning foydasi katta. Talabalar bo'sh vaqtida saytlarga kirib har bitta o'zida bo'lgan bo'shliqlarni to'g'iray oladilar tushunmagan savollariga hech qanday vaqt sarflamasdan javob topa oladi. Mobil ilovalar orqali til o'rganish rivojlangan Duolingo, Anki, Memrise ilovasi orqali o'z darajisini belgilagan holda u bergan vazifalar orqali tilni mustahkam o'rganadi oladi. Sun'iy



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

intellektlar Chatgpt, Google translate, Jasper ai, Heygen bilan mashq qilish, Ted Talks BBC Learning English ingliz tili darajasini oshishiga va mustaqil o'rganishiga yordam beradi. Onlayn darslar ham yurtimizda avj olgan, tilni bilgan inson uyda masofaviy ta'lim olish hamda o'qitish imkoniyatiga ega.

**Xulosa.** Tilni faqatgina grammatika yoki so'z yodlashlar orqali o'rgana ololmaysiz. Til kundalik hayotga aylanishi kerak muntazam mashq va mustaqil o'z ustida ishlash yaxshi ko'nikmaga erishishga yordam beradi. O'qituvchining talaba bilan ba'zida individual shug'ullanishi, kerakli dars uslublarini qo'llash, zamonaviy metodlar, interfaol darslar, texnologiyadan foydalanish muhim. Tepada ko'rsatilgan to'rt asosiy ko'nikmalar gapirish, o'qish, yozish, tinglab tushunishni o'rganish tilni tez va yaxshi egallashga yordam beradi. O'qituvchilar shunchaki o'yinlar emas talabalarni rag'batlantirish orqali ham ular uchun tilga qiziqishini oshiradi, hamda hayotda har doim so'zlashish, doimiy mashq qilish o'quvchilarga tilni tezroq o'rganishiga imkoniyat yaratadi. Harakatlar natijasida o'sish bo'ladi, zero shular orqali chet tilini yaxshi o'rgana olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. PQ 1875 "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi qaror. "Xalq so'zi" gazetasi, 2-bet. 2012 yil, 10-dekabr.
2. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
3. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: PearsonLongman
4. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). Learning and Teaching Information Technology-- Computer Skills in Context, East Lansing, Mi, Eric document ED465377, Retrieved June 7, 2007, from [http:// www.ericdigests.org/2003- 1/skills.htm](http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm).
5. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). Network-based Language Teaching: Concepts and Practice, Cambridge: Cambridge University Press
6. Jalolov J. "Chet tilini o'qitish metodikasi" (Toshkent 2012)